


YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 14 492,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,5 %ga o'sdi.




YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,6 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 11,3 %ga yetdi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YaHM	12 535,0	14 492,1	104,5
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 914,8	13 946,3	104,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	620,2	545,8	103,9
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 914,8	13 946,3	104,6
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 890,8	2 226,5	102,8
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 957,2	8 161,6	105,2
	sanoat	6 386,0	7 348,0	103,0

		Mlrd. so‘m		O‘sish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan %da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	571,2	813,6	130,3
	Xizmatlar	3 066,8	3 558,2	104,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	872,3	1 035,5	103,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	607,3	719,2	105,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 587,2	1 803,5	103,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 861,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 %ga yuqoridir.












Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,2 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 16,0 %ni, sanoat tarmog'i 52,7 %ni, qurilish 5,8 %ni va xizmatlar sohasi 25,5 %ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan %da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,1	96,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,9	3,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	15,9	16,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	58,4	58,5
	sanoat	53,6	52,7
	qurilish	4,8	5,8
	Xizmatlar	25,7	25,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	7,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	13,3	12,9




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 16,0 %), sanoatda – 103,0 % (52,7 %), qurilishda – 130,3 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 104,1 %ni (25,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,8 % (7,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 105,1 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,8 %dan (12,9 %) iborat bo'ldi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 3,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,4 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,0 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,5 f.p.) hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,5 f.p.)ga ko'paydi.





2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiqa nisbatan %da)




2021- yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,6 %ni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 114,5 % va sanoat tarmog'ida – 111,7 % qayd etildi.



Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 41,8 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 42,0 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.